

TILLANISO SHE'RIYATIDA POETIK TALQIN O'ZGACHALIKLARI

Rajapova Khulkaroy Atabek qizi*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi**1-kurs magistranti*hulkaroyrajapova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh ijodkorlardan biri Tillanisoning ijodi haqida so'z boradi. 2022-yilda "Izlam" rukni ostida chop etilgan "Qon" nomli she'riy to'plamidagi she'rlar tahlil qilinadi. Ijodiga doir ayrim chizgilar bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Tillaniso, qon, poetik talqin, tashbeh.

Annotation. This article talks about the work of one of the young artists Tillaniso. Poems from the poetry collection "Blood" published under the column "Izlam" in 2022 will be analyzed. Some lines about her work are described.

Key words: Tillaniso, blood, poetic interpretation, allegory.

Абстрактный. В данной статье рассказывается о творчестве одного из молодых художников Тилланисо. Будут проанализированы стихи из поэтического сборника «Кровь», опубликованного в рубрике «Излам» в 2022 году. Описаны некоторые строки о его творчестве.

Ключевые слова: Тилланисо, кровь, поэтическая интерпретация, аллегория.

Adabiyot qozonida qaynab, ijod qilish nihoyatda mushkul bir jarayon. Bu jarayon ichida ohorli umumlashmalarga ega fikr ayta olish undan-da mushkul jarayon. Hech kim ayta olmagan fikrni aytish, hech kim ilg'ay olmagan hislarni kuzatib, uni poetik talqinda ijro etish esa yana bir mushkul jarayon. Chunki adabiyot takrorlardan zerikadi. Uning ozig'i – SO'Z! Ammo har qanday so'z oziq bo'la olmaydi. Adabiyot hamisha bir narsadan – yangiliklardan, yangi so'zdan oziqlanadi. To'g'ri, dastlab har kim qaysidir ustozning ijodidan ta'sirlanib, takroriylikni yuzaga keltirishi mumkin, ammo bu takroriylik umrbod bo'lmasagina, ijodkor uchun qoliplar belgilanmasagina adabiyot yuksalishi mumkin. Tinimsiz mutolaa mehnati, ijod mashaqqati, she'r zahmati bilan yuksaladi adabiyot. Adabiyotning, ayniqsa badiiy adabiyotning yuki – nihoyatda og'ir, nihoyatda zalvarli! Buni ko'tarishni har kim ham udda qila olmaydi. Oilada bir farzand tarbiyalangani kabi, yillar, chig'iriqlar tufayli iste'dod ham tarbiya topadi, kamol topadi.

Bugun iste'dodini kamol toptirayotgan, qalami ustida mashaqqat qilayotgan Tillanisoni ana shunday ijodkorlardan biri deyish mumkin. Uning yozganlarini tahlil qilish uchun uning ruhiyatini tushunish kerak. Uning yozganini his qilish uchun mavji

barhayot ummonlarni tasavvur qilish kerak. U nihoyatda sochma uslubda yozadiki, bunday yozish uchun ham bilim, iste'dod kerak. Bu haqida Xurshid Davron shunday deydi: "O'qib ko'rib, yosh shoira o'ziga xos dunyo yaratishga intilayotganini ko'rdim. She'rlari ko'proq sochma yo'lida yozilgan. Tizginsiz sochma xuddiki bo'ronda qutirgan, oy ostida sokin mavjlangan qalb dengizining oynasiga o'xshaydi. Bir qarashda oson ko'rinsa-da, sochma ijodkordan yetarli tajriba va mahorat talab qiladi. Juda sodda tarzda aytsam, sochma erkin ifoda (rostgo'ylik) va fikriy ohangdorlik (tajriba) dan tug'iladi. To'g'ri, rostgo'ylik bolalikdan keladi, tajriba esa vaqt bilan yetiladi. Tillanisoning she'rlarini o'qib, shoira o'z izlanishlarida namoyon bo'layotgan rostgo'ylik va tirishqoqlikni davom ettirsa, kelgusida o'ziga xos olamini yarata olishiga ishongim keldi"¹. Uning "Qon" nomli hikoyalar to'plami "Akademnashr" tomonidan 2022-yili "Izlam" rukni ostida nashr qilingan edi. Ushbu kichkina ilmiy tadqiqotimizda Tillanisoning "Qon" to'plamiga kirgan ijod namunalaridan ayrimlarini tahlil maydoniga tortamiz.

Qayga olib borib adashtiray dardlarni?
 Ertakdagi o'rmonga olib bordim adashtirgani,
 Biroq o'zim adashdim
 Qismatning o'rmonida.
 Qaytib kelmadim.
 Suvga oqiziq qildim,
 Baribir ketmadi oqib².

She'riyat takomillashuvi bu o'z-o'zidan sodir bo'lib qoladigan hodisa emas. Yillarni, yo'llarni yurib o'tmog'i kerak buning uchun ijodkor. "Albatta, hamma ham shoir ko'tarilgan yuksakliklarga ko'tarilish baxtiga muyassar bo'lavermaydi. Axir, "xalq" degan tushuncha tez-tez tilga olinib turilsa-da, hech qachon har jihatdan teng, yaxlit bir kuchni anglatmaydi. Hamisha xalq bor, olomon bor, avom bor, oriflar bor... odatda, qalbi uzoq, haqiqatga va go'zallikka tashna oriflarga shoir yaratgan nafosat olamini idrok qiladilar va g'ofillarni uning go'zalliklaridan ogoh etadilar. Shu tariqa shoir yaratgan go'zallik xalq mulkiga aylanadi va uning ma'naviy dunyosining yuksalishiga xizmat qiladi"³. Tillanisoning yuqoridagi misralarida ijodkorning noodatiy talqindan foydalanganini ko'ramiz. U dardlarini xuddi biz ertaklarda tinglagan, multfilmlarda tomosha qilgan kimsasiz o'rmonga olib borib, adashtirmoqchi, ulardan xalos bo'lmoqchi edi. Ammo buni udda qila olmaydi. Yoxud yomon tush ko'rgach, uni suvga aytib, yengil bo'lish haqida gap yuradi xalqimizda. Suvga olib borib oqizib yubormoqchi ham ediki, buning ham uddasidan kela olmadi.

¹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yoshlar/tillaniso-eshboyeva-she'rlar.html>

² Tillaniso. Qon. — T.: Akademnashr. 2022. 29-30-bet.

³ Шарафиддинов О. "Иждни англаш бахти". ШАРҚ НМАК. — Т.: 2004. 640 б.

Chunki Tillaniso bildiki, uning o‘zi boshdan-oyoq dard atalmish tushunchadan bunyod bo‘lgan. Uni barpo qilgan tushuncha adashtirib kela olmagan, suvga oqizib yubora olmagan – dardi! Bu misralarida folklor unsurlarining poetik talqini kuzatish mumkin. Dard hamisha turlicha talqinda kuylanib kelingan. Zero adabiyotni, ijodni yuksaltiradigan narsa ham darddir! Agar dard bo‘lmasa, hamma asardagi qahramonlarning har biri yaxshi bo‘lsa, yaxshi turmush tarzida yashaydigan bo‘lsa, unda hech bir ma‘ni qolmasdi adabiyot uchun ham, hayot uchun ham. Tillanisoning yutug‘i shuki, u ko‘pchilik singari oddiy, yechimi bo‘lgan muammolarni, to‘siqlarni dard deb qabul qila olmaydi. Uning dardi – katta! Jussidan-da katta dardni tashib yuradi yelkasi uzra. Haqiqiy ijodkor shunday bo‘lishi kerak aslida. Yozganga yarasha, eng katta narsani qalamga olish kerak, yo‘qsa mayda-chuydalar qalamga olinsa, unda ijod ijod bo‘lmay qoladi. Tillaniso esa allaqachon bu narsalarni anglab bo‘lgan va katta dardlarni kuylaydi. Uning shunday og‘riqlari borki, buni his qilish qiyin. Aslida hamma ijodkorda bo‘ladi og‘riq. Ammo hamma ijodkor ham bu og‘rig‘ining suratini chizishda nihoyatda qiynaladi. Tillaniso ham ming mashaqqat bilan chizgan yurakdagi og‘riqlarining suratini:

So‘ng yurakdagi og‘riq yomg‘ir bo‘ladi

Yurakdagi og‘riq yo‘ldir manzilsiz

Yurakdagi og‘riq – navqiron, horg‘in⁴. (95-bet)

“Bugungi odam – murakkab. Bugungi o‘quvchi o‘ychil. Bugungi yozuvchi sinchkov”⁵. Demak, jamiki og‘riqlar unda mujassam. Og‘riqning bemanzil yo‘lligini yozgan, og‘riqning navqiron, hamisha barhayot ekanini yozgan Tillaniso ushbu she‘riy misralarida go‘zal tashbeh etgan og‘riqlarni. Ohorli fikr aytgani esa qalamini sayqallab borayotganining isbotidir. Yomg‘ir esa ko‘p hollarda dardning ifodasi sifatida keladi. Bu misralarda esa yog‘ir dardning ifodasi ekaniga ishora qilib, yomg‘ir ham aslida og‘riqlardan yaralashini aytmog‘chi. Ijodkorning didi – inja! Chunki o‘zgacha talqinda kuylayapti dardni ham, og‘riqni ham. Uning yuragidagi dard, og‘riqni qay bichimda, qay shaklda ekanini tasavvur qilish qiyin kechardi shu qadar, agar, ohorli umumlashma ayta olmaganida. Quyidagi misrasida o‘z ruhining bichimini aniq o‘lchab, ifoda etadi:

Mening ruhim og‘ir toshning shaklinda,

Alamlar zichlashib qotgan qiyofa.

Ovozlarining o‘tmas unda.

Ko‘z yosh yemirmas⁶.

Botinni inkishof etmoq oson emas. Har bir qilinadigan ish, ijod o‘zlikni anglashga xizmat qilishi kerak. Inson ichida barhayot mavjlanadigan ishtiyoqni,

⁴ Tillaniso. Qon. — T.: Akademnashr. 2022. 29-30-bet.

⁵ Йўлдош Қ. Ёниқ сўз. — Т. Янги аср авлоди. 2006. 258-бет.

⁶ Tillaniso. Qon. — T.: Akademnashr. 2022. 116-bet.

havasni topishi kerak. Bularsiz inson hayoti zerikarli bo‘lib qoladi. Botinini kashf etish istagida bo‘lgan ijodkor ruhini xarsang – og‘ir toshga qiyos etadi. U shunday qattiq toshki, alamlarning yig‘ilishib qolishi natijasida shu ahvolga kelgan. Bu qattiq toshni yemirishning iloji yo‘q ortiq. Bu qattiq tosh – ijodkorning o‘zi! Bu qattiq tosh – ijodkorning metinday irodasi! Bu qattiq tosh – ijodkorning qat’iyati. Alamlar natijasida, og‘riqlar, dardlar natijasida u metin irodaga aylanib bo‘lgan va uni yemirish endi mushkuldir. Bunda ham ijodkor yana o‘z ichkarisining siyratini chizadi. Undagi lirik qahramon – Tillanisoning o‘zi. Uning tushunchalar, bilganlari, g‘oyaga intilishlari ma’lum bir qolipga sig‘maydi. U o‘zining ichkarisini qo‘rqmasdan namoyon eta oladi. U o‘zini tanishni istaydi va nima bo‘lsa ham faqat yozadi. Yuqoridagi misralarida Tillanisoni yanada yaqindan taniydi o‘qirman. Kichik bir hayotiy misol keltirsak. Deylik, biron joyga bormoqchimiz, u joyning aniq manzilini bilmaymiz, avval borib ko‘rmaganmiz. Avval umuman bormagan, qaysi manzildaligi bo‘yinch a niq ma’lumotga ega bo‘lmasak, odamlardan yo‘l so‘rab-yo‘l so‘rab boramiz. Boshqa odamlar bizga yo‘l ko‘rsatib qo‘yishadi, o‘ngga, chapga, to‘g‘riga, orqaga qarab yursak manzilga yetib borishimizni aytishadi, tushuntirishadi. Lekin bizga qo‘shilib, biz bilan birga ana o‘sha yo‘lni bosib o‘tishmaydi. Ijod yo‘li ham shunday. Manzil aniq – ijod atalmish katta marra. Unga bormoqchisiz. Ammo qaysi yo‘l bilan boriladi? Qanday yetib borish mumkin? Buni hech kim aniq bilmaydi, biroq atrofdagi odamlar sizga faqatgina yo‘l ko‘rsatib qo‘yishi mumkin. Sizga qo‘shilib, ular yo‘l bosib bera olmaydilar. Yosh ijodkorlar ham ustozlardan yo‘l so‘rab, tinmay mashq qilib yetib keladilar bundayin yo‘llarga. Tillaniso ham shunga munosib bo‘lish istagida o‘zini tayyorlab boryapti. Uning quyidagi misrasini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi:

Bo‘yimizga chirmashdi xavotir.

Xavotirimiz bo‘yimizdan baland edi.

Tiq etgan tovushdan tushardik cho‘chib.

Oxir bizni zabt etdi xavotir.

Mahbus bo‘ldik⁷.

Yuqoridagi misralarida nihoyatda quyuq tashbeh qo‘llagan. Yana bir misrasini shundayin chiroyli yozganki, bu misralarni o‘qib, uning inja didini bilib olish mumkin. Odatda, onaning bo‘yniga bolasi chirmashadi, yorning bo‘yiga esa uning sevgani bosh qo‘yib, erkalanishi mumkin. Lirik qahramonning bo‘yniga xavotir, xuddiki, chirmovug gullariday chirmashib oladi. Dastlab, xavotir shunchalar kattamidi? Yurakka in qurgan nuqtadaygina xavotir keyinchalik ildiz otib, kattayib ketdi. Xavotir kattaymasligi uchun unga qarshi kurash qilinmadi, xavotir insonni mahv etmaslikning oldi olinmadi. Bundan sayin xavotir kattaygani sari kattayib ketaverdi-kattayib ketaverdi. Natijada ana o‘sha xavotir uning bo‘yi qadar ulg‘aydiki, oxir-oqibat xavotir lirik qahramonni

⁷ Tillaniso. Qon. — T.: Akademnashr. 2022. 12-bet.

kishanband qilib, o'z mahbusiga aylantirdi. Endi darddan, og'riqdan bunyod bo'lgan ijodkor, qarasaki, xavotirdan ham bunyod bo'lgan ekan. Xavotir ham uning ichkarisini qamal qildi va fath etdi. Tillaniso nihoyatda o'zgacha talqin qilgan xavotir atalmish hisni. Dunyo hislardan iborat, u xoh yaxshi, xoh yomon bo'lsin. Ularning barining nomi – his!

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, uning she'rlarida ko'rkam ifoda bor, teran ifoda bor. U sochma shaklda yozadi va unndagi mazmun ham, poetik talqin ham o'zgacha. Uning yozganlari biron-bir qolipga sig'maydi va uning she'rlaridagi mazmun ham nihoyatda izchil, teran ifodasini namoyon etadi. U dardni ham, og'riqni ham, xavotirni ham, o'z ruhining shaklini ham yoxud boshqa bir his-tuyg'uni kuylaganida mushohadani kuzatish mumkin. Uning she'rlari shu qadar sochmaki, u faqat rostlikni kuylay oladi. Rostgo'ylik qalamga olinganida esa, u ma'lum bir qoliplarga, o'lchamlarga sig'maydi. Samimiy va rost bo'lgani uchun uning ijodi nihoyatda ko'rkam. Va eng muhimi Tillaniso o'zini inja tashbehlar bilan bezab tashlamaydi. U kishini junjiktiradigan tasvirlari bilan ham alohida ajralib turadi. U muazzam portretlar, go'zal kartinalar chizadi o'z qalami bilan. Uning ijodi shakl va mazmun jihatidan hali yangicha uslubda bo'lgani uchun bugun uning ijodini tushunish murakkab kechishi mumkin. Yana quyidagilarni ham qo'shimcha qilish mumkin:

- Tillanisoning she'rlari esa nihoyatda murakkab, nihoyatda mushkulligi kundek ravshandir. Uning she'rlarini bugungi kunda xohlagan kitobxon yoxud kitobxon bo'lmagan bironta inson tahlil qila olmaydi. Chunki uni tushunish qiyin. Uning she'rlarini o'qish uchun uning shaxsiyatini yaqindan bilish kerak. Uning she'rlarini mag'zini chaqa olish uchun tayyor bo'lish kerak;

- Tillaniso ijodida qon, g'oya tasvirlari yetakchilik qiladi. Ammo xalqona ohanglar ham yo'q emas;

- Tillaniso she'rlarini sochma yo'lda yozadi;

- Tillaniso o'z she'rlarida rostgo'ylikni qalamga oladi, bor narsani boricha, ochiq-oydin shaklda yozadi;

- Tillaniso har safar ruhiyat haqida yozganida, har safar ruhiyatni yangicha talqin qiladi. Ammo, nima bo'lsa ham uning she'rlaridagi rostlik she'rsevar qalbni hamisha o'ziga tortib turaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yoshlar/tillaniso-eshboyeva-she'rlar.html>
2. Tillaniso. Qon. – T.: Akademnashr. 2022. 120 b.
3. Шарафиддинов О. “Ижодни англаш бахти”. ШАРҚ НМАК. – Т.: 2004. 640 б.
4. Ёўлдош Қ. Ёниқ сўз. Т. Янги аср авлоди. 2006. – Б. 548